

# МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҰЗЛИКСІЗ БИЛДІМПЕНДИРИҮ



№ 6/7 - 2022 жыл

## Илімий-методикалық журнал

### Редактор:

А. Тилегенов

### Редколлегияның ағзалары:

Максат АЙЫМБЕТОВ  
Нагмет АЙЫМБЕТОВ  
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ  
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Алишер АЛЛАМУРАТОВ  
Диңшодхұжа АЙТБАЕВ  
Тұлқын АЛЛАЁРОВ  
Умида БАХАДИРОВА  
Фархад БАБАШЕВ  
Аскар ДЖУМАШЕВ  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Мирзамурат ЖУМАМУРАТОВ  
Аскарбай НИЯЗОВ  
Сабит НУРЖАНОВ  
Үролбой МИРСАНОВ  
Бахтиёр РАХИМОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Барлықбай ПРЕНОВ  
Қаҳдор ТУРСУНОВ  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Саодат ТОШТЕМИРОВА  
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ  
Риззат ШОДИЕВ  
Зафар ЧОРШАНБИЕВ  
Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА

### Шалкемлестириүшілер:

Қарақалпақстан Республикасы  
Халық ғылымпендириү  
Министрлігі, ӨЗПНИИ  
Қарақалпақстан филиалы

Озбекстан Республикасы  
Министрлер Кабинеті  
жанындағы Жоқарғы  
Аттестация Комиссиясы  
Президиумының 25.10.2007  
жыл (№138) қарары менен  
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз хам  
хабар агентлиги тарепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге  
алынды №01-044-санлы гүйдемк  
берилген.

Мәнзіл: Нокис қаласы,  
Ерназар Аликоз көшеси №54  
Тел.: 224-23-00  
e-mail: izpniir@umail.uz,  
mugallim-pednauk@umail.uz  
[www.mugallim-uziksiz-bilim.uz](http://www.mugallim-uziksiz-bilim.uz)

Журналда көлем мактапаларын жуыл қайтарылмаімы, журналда мәденияттік мактапалардан  
жынылған үзінділер «Мугаллим әдәм үзіншегін билимпендириү» журнализмнан алынды, деген көрсеткішінің  
шарты. Журналда 5-бет көлеміндегі материалдар екіншікелде TIMES NEW ROMAN шрифтінде  
жазылады және мактапалардың орталықтағы мактапалардағы автор мәденияттер.

## МАЗМУН

## ТИЛ ХӘМ ӘДЕБИЯТ

Бабаева Ш.Б. Метод моделирования - pragmaticheskiy aspekt v lingvistike.....3

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

<b>Norliyev A.</b> Boshlang`ich sinflarda adabiy ta'limining umumnazariy masalalari va o'quvchilarda intellektual anglash malakalarini shakllantirish .....	10
<b>Pardayeva K.Z., Zamonova Sh.S.</b> Bo'lajak o'qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari .....	14
<b>Sayfullaev G.M., Sattorova D., Xaitova N.</b> Boshlang`ich sinf o'quvchilarida tabiiy bilimlar haqidagi tasavvur va tushunchalarni shakllantirish hamda rivojlantirishning uslubiy asoslari .....	17
<b>Ibrohimova M.F.</b> Boshlang`ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda grafik va jadval ko`rinishidagi topshiriqlardan foydalanish .....	21
<b>Olloqova O'.M.</b> O'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari .....	24
<b>Qurbanova Sh.N.</b> Boshlang`ich sinf texnologiya darslariga intensiv ta'limni tashkil etish.....	29
<b>Yusufzoda Sh.Y.</b> Alifbe davrida yozuv texnikasini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	34
<b>Жаббарова А.Ш.</b> Бошлангич синфларда бадиий асар эпизодлари масаласи ва эстетик таҳлил методлари.....	38
<b>Пўлотова Ю.</b> Бошлангич синф она тили ва ўқиши дарсларида ахборот-ресурслар интеграциясини таъминлашда ўқитувчи компетентлиги .....	41
<b>Хайруллаева Д.Н.</b> Методика обучения примерам этнопедагогики на уроках родного языка и читательской грамотности в 1-2-х классах .....	47
<b>Пўлотова Ю.</b> Бошлангич синф она тили ва ўқиши дарсларида ахборот-ресурслар интеграцияси методик муаммо сифатида .....	51
<b>Тошпулатова Н.</b> Илмий дунёқарашни шакллантириш ва ўкувчиларни ақлий тарбиялаш (аник ва табиий фанлар мисолида) .....	57
<b>Самиев А.С.</b> Ўкувчиларни маънавий-ахлоқий тарбиясини такомиллаштирища ҳадис намуналаридан фойдаланиш.....	62
<b>Салохитдинова Н.М.</b> Бошлангич синфларда интеграциялашган таълимни такомиллаштириш технологияси .....	68
<b>Самиев А.С.</b> Ҳадис маънавият ва ахлоқ.....	73
<b>Имонова М.Б.</b> Характер акцентуациясининг деструктив хулқ шаклланишига оиланинг таъсири.....	79
<b>Джуракулова А.Х., Холиқмуродова Д.Х.</b> Бошлангич синф ўкувчиларнинг коммуникатив қобилиятларини шакллантиришнинг психологик ва педагогик хусусиятлари .....	82
<b>Xidirova M.M.</b> O'quvchi-yoshlarning ma'naviy tafakkurini shakllantirishda oila va mahallaning o'rni.....	86
<b>Yorboboyeva I.B.</b> O'smir yoshdagi o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik imkoniyatlari.....	91
<b>Kadirova D., Abdullayeva D.</b> Boshlang`ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishning uzviyiligi va uzlusizligini ta'minlashining nazariy asoslari.....	95
<b>Xoliyorova D.N.</b> Boshlang`ich sinflarda tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanishga doir ilmiy-nazariy qarash.....	101

**ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА**

<b>Qosimov F.M., Qosimova M.M.</b> Arifmetik masalalarni yechishda tavsiya etiladigan ilmiy-usuliy mulohazalar .....	104
<b>Умарзода Ш.А.</b> “Алгоритмик тиллар ва дастурлаш асослари” фанини ўқитиша замонавий технологиялардан фойдаланиш.....	109
<b>Абдуқодиров Ж.Б.</b> Умумий ўрта таълим мактаблари ўкувчиларини физика фани оптика бўлимига доир ностандарт масалаларнинг мазмун-моҳияти билан танишириш .....	112

**БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ**

<b>Jo‘rayeva M.S.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonini rivojlanishi, tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatlarini rivojlantirish .....	117
<b>Xolmirzayeva Sh.M.</b> Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida steam ta’lim texnologiyasini qo’llash orqali bolalarda ijodiy faoliyotni rivojlantirish .....	120
<b>Tursoatova G.T.</b> Syujetli rolli o‘yinlar orqali maktabgacha o’rta yosh guruhi bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirish .....	124
<b>Xurramova S.A.</b> Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarni musiqa yordamida ma’naviy va axloqiy sifatlarini rivojlantirish yo‘llari.....	127
<b>Payg‘amova J.T.</b> Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda aqliy qobiliyatlarini o’stirishda xorij tajribalaridan foydalanish.....	131
<b>Boymurodova S.E.</b> Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijtimoiy hissiy rivojlanishi.....	134
<b>Jo‘rayeva N.Z.</b> Maktabda va oilada mehnat tarbiyasini rivojlantirish orqali tadbirkorlik motivatsiyasini shakllantirish .....	140
<b>Нигматуллаева М.И.</b> Катта ва тайёрлов гурухларда коммуникатив ўйинларни ташкил этиш орқали мулоқот кўнимасини шакллантириш .....	145
<b>Хайруллаева Ш.А.</b> Дидактик ўйинлар орқали болаларни мустақил фикрлашга ўргатишдаги методик имкониятлар.....	151
<b>Пардаева Р.Э.</b> Мактабгача ёшдаги болалар мулоқот маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий психологик хусусиятлари.....	156
<b>Ramatjonova G.B.</b> Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ota-onalarning mashg‘ulotlar orqali pedagogik-psixologik savodxonligini oshirish .....	162
<b>Samadova Y.T.</b> Maktabgacha va boshlang‘ich matab yoshidagi bolalarni ijtimoiylashtirishning ta’limdagi o‘rni va roli .....	166

**ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲЭМ СПОРТ**

<b>Махмудова М.Қ.</b> Ёшларни жисмоний тарбия ва спортга жалб қилишда олимпия таълимининг аҳамияти.....	170
<b>Baxriyev J.E.</b> Yosh bokschilarining jismoniy tayyorgarligini amalga oshirish metodlari va ularning mazmuni .....	175

rasmni tugatadilar. Amaliy ish yakunida bolalar qaysi faslni tasvilaganlarini va bu fasl boshqa fasllardan shunday jihatlari bilan farq qilishini aytadilar. Har bir bola 1 ta jihatni aytadi.

#### **Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar:**

1. Fasllarning nomini bilib oldingizmi? Aytib bering-chi?
2. Qish bilan bahor, yoz va kuzni birgalkda qanday nomlashimiz mumkin?
3. Bir yida nechta fasl bor?
4. Bahordan keyin qaysi fasl keladi?
5. Kuzdan keyin qaysi fasl keladi?
6. Yozdan keyin qaysi fasl keladi?
7. Qishdan keyin qaysi fasl keladi?
8. Bahor va kuz fasllari o`rtasida qaysi fasl bor?
9. Sizga eng yoqadigan fasl qaysi? Nima uchun?
10. Kuz va bahor fasllarining orasida qaysi fasl bor?

Dars yakunida o`quvchilarni rag`batlantirish.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
2. A.Baxronov, Tabiatshunoslik 3-sinf umumiy o'rta ta'lif maktablari uchun darslik. T; Cho'lpon NMIU 2012 y.
3. A.Baxronov Tabiatshunoslik 4-sinf umumiy o'rta ta'lif maktablari uchun darslik. T; Sharq NMIU 2011 y.
4. P. G'ulomov, Mirzaaxmatova Sh. Atrofimizdag'i olam 2-sinf uchun darslik. T; Cho'lpon NMIU 2012 y.
5. G.M.Sayfullaev. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. O`quv qo'llanma Buxoro-2020.

#### **REZYUME**

*Bu maqolada boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida o`quvchilarda tabiatshunoslik tasavvur va tushunchalarni shakllantirish usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

#### **РЕЗЮМЕ**

*В данной статье представлена информация о методах формирования естественнонаучных представлений и понятий у учащихся начальных классов естественных наук.*

#### **SUMMARY**

*This article provides information on the methods of formation of natural science ideas and concepts in primary school students of natural sciences.*

#### **BOSHLANG`ICH SINFLARDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK VA JADVAL KO`RINISHIDAGI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH**

**Ibrohimova M.F.**  
*Buxoro Davlat Universiteti o`qituvchisi*

**Kalit so`zlar:** mantiqiy tafakkur, mantiq, mantiqiylik, mantiqiy topshiriq, boshlang`ich ta`limi.

**Keywords:** logical thinking, logic, logicality, logical task, primary education.

**Ключевые слова:** логическое мышление, логика, логичность, логическая задача, начальное образование.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach ayniqsa XXI asr ostonasida ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma`naviy-marifiy sohalarga e`tibor yanada kuchaydi. Ko`plab sohalar rivojlanib ravnaq topib bormoqda. Shuni e`tiborga olish kerakki, hozirgi kunda ta`lim sohasiga yanada kuchli e`tibor berilayotgani hech kimga sir emas. Ravnaq topib borayotgan, Ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy va ma`naviy sohalarda islohotlar amalgalashirilayotgan O'zbekiston sharoitida tafakkuri keng, mantiqiy fikrlovchi yoshlarga ehtiyojning oshishi davr talabidir. Chunki tafakkuri keng, dunyoqarashi serqirra bo`lgan insonlargina jamiyat taraqqiyotini ta`minlashga qodir bo`ladilar.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish muhim masaladir. Chunki kichik mакtab yoshida o`quvchilarining ongli faoliyati ilm olishga chanqoq bo`ladi. Bu yoshda o`quvchilar tashqaridan olishi kerak bo`lgan bilimlarni, odob-axloq, xotiraning mustaxkamligi, diqqatning barqarorligini oshirish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Aynan shu yoshda o`quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish boshlang`ich sinf o`qituvchisining asosiy vazifasi hisoblanadi. Shu yoshda boshlang`ich sinf o`quvchilarini to`g`ri yo`lga solib, ularni ilm-fanga, texnologiya va boshqa kasblarga qiziqishini orttirish kerak bo`ladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining fikrlarini dadillashtirish, kasblarga qiziqishini orttirish, kelajakka teran nigohlar bilan boqish uchun ularning qalbida vatanparvarlik tuy`usini shakllantirish muhimdir.

**Adabiyotlar sharhi.** Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish borliqni, voqeilikni, idrok etish usuli sifatida tafakkur bilan bog`liq bo`lib, boshlang`ich sinflarda arifmetik amallar bilan ishlash, mantiqiy masalalar ustida ishlash, ta`lim jarayonida raqamlar texnologiyalardan ongli foydalanish, mustaqil ishlashni tashkil etish jarayonida shakllanadi.

O`quvchilarga o`qituvchi tomonidan qo`yiladigan talablar ko`p xollarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilmaydi. T`a`limda faqat bilimlarni tarkib toptirishga e`tiborni qaratish ta`lim sifati va samaradorligining pastlashiga olib keladi. Vaholanki, mantiqiy tafakkuri keng bo`lgan o`quvchilarginabilimlarni mustaqil o`zlashtira oladi. Shu sababli boshlang`ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish juda muhimdir.

“Mantiq” so`zi arab tilidan olingan bo`lib, yunon tilidan olingan “fikr”, “so`z”, “qonun” ma`nosini anglatadigan “logika” so`zining arab tilidagi ifodasi hisoblanadi. (falsafa qomusiy lug`ati)

“Mantiqiylik” bu mantiq, mantiqiy asos, qonuniylik, asosiylilik demakdir.

Hech kimga sir emaski, boshlang`ich sinf o`quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning asosi matematika fanidir. Matematik misol-masalalarni yechish boshlang`ich sinf o`quvchilarining fikrlash, kata qulaylik yaratadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish kata ahamiyatga ega. Chunki, kichik mакtab yoshida o`quvchilar o`zлari uchun kerak bo`ladigan bilimlarning tayanch asosini oladilar. Aynan shu bilimlari kelajakda o`rganiladigan fanlar uchun qulaylik yaratadi va dasturilamal sifatida xizmat qiladi.

Nizomiy nomidagi TDPU fan doktori, professor –Ibragimov Rasqul tomonidan yozilgan “Boshlang`ich maktab o`quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari” nomli doktorlik dissertatsiyasida keng yoritilgan bo`lib, disseratatsiyada boshlang`ich sinf o`quvchilarining bilish jarayoni psixologik, falsafiy tarafdan keng ochib berilgan.

Shuni takidlab o`tish kerakki, boshlang`ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun, ko`proq mantiqiy topshiriqlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Aynan mantiqiy topshiriqlar ustida ishlash uchun maktab boshlang`ich sinf darsliklariga murojaat qilamiz.

**Muammo va yechimlar.** Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; ob`yektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalgalashirishning asosiy sharti

sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni ular ortasidagi boglanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yol bilan aks ettirishga aytildi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va tolaroq aks etadi.

Tafakkur jarayonini tezlashtirish va mukammallashtirish mantiqiylikni oshirish bilan bevosita bog`liqdir. Boshlang`ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish ko`p tomonlama ular bilan mantiqiy topshiriqlar bajarish bilan bog`liqdir. mantiqiy topshiriqlarning turli ko`rinish va turlaridan foydalanish o`quvchilar fikrlashini yaxshilashga xizmat qiladi. shu sababli har bir o`quvchida dunyoqarashni rivojlantirish va mantiqiylikni o`stirish uchun mantiqiy topshiriqlardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Bu ko`rinishdagi misollar ham bir qaraganda qiyin tuyuladi, ammo diqqat bilan qaralsa sonlar orasidagi qonuniyat aniqlansa, misolning javobi ham tezda aniqlanadi.

$$(8+3)*4=44$$

$$(7+9)*2=32$$

$$(7+8)*X=75 \text{ bu tenglikdan } X=5 \text{ ekanligi aniqlanadi.}$$

Shu ko`rinishdagi mantiqiy topshiriqlardan foydalanish o`quvchi;lar bilimini yanada mustaxkamlashga yordam beradi.

1-sinf matematika darsligida o`quvchilarning matematik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ko`plab mavzular o`xshash va farqlarni topishga, taqqoslash orqali fikrlashni o`stirishga qaratilgan. Xususan, 1-bob "Narsalarning xossalari" deb nomlanib, 10 ta darsni ichiga oladi. Barcha mavzular o`xshash va farqlarni aniqlash, narsalarni bir biriganiORBATI orqali farqlarni aniqlashga qaratilgan.

Bu topshiriqda to`plamlarning xossalari ko`ra to`plamlarga ajratish haqida fikrlar bayon qilingan. Shu va shunga o`xshash topshiriqlar 1-sinf o`quvchilari uchun tafakkurning kengayishiga xizmat qiladi.

Bu topshiriqda to`plamlarning xossalari ko`ra to`plamlarga ajratish haqida fikrlar bayon qilingan. Shu va shunga o`xshash topshiriqlar 1-sinf o`quvchilari uchun tafakkurning kengayishiga xizmat qiladi. Quyidagi topshiriq esa o`quvchining o`ziga topshiriqni bajarish uchun berilgan.

Rasmga ko`rsatilgan narsalarning qaysilari bittadan ko`rsatilgani so`raglan.

Shu o`rinda o`quvchi javobi quyidagicha bo`lishi kerak:

-darvoza, devor, so`ri, xontaxta, arg`imchoq, mushuk, choynak, ona, qiz.

Bu ko`rinishdagi misollar mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi xarakterga egadir. Bu ko`rinishdagi misollarni o`quvchilar boshlang`ich sinfdan yechishlari, rebuslardan foydalanishlari mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgandir.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun kata ahamiyatga egadir, chunki har tomonlama yuqori fikrlaydigan yoshlar Vatanimiz kelajagidir. Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda mantiqiylikni rivojlantirish zamon talabidir. shu sabali mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlarni yechish muhim sanaladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jonpulatovna S. M., Qizi I. M. F. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.
2. Ibrohimova M. BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSALARINI O``TISHDA" DAY GAME" DAN FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3. 3.
3. Ibrohimova M. F. IMPROVING INTEGRATION IN TEACHING ARITHMETIC PRACTICES IN PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS //УЧЕНЫЙ XXI BEKA. – С. 31.

4. Jonpulatovna S. M., Qizi I. M. F. Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 5. Ibrohimova M. Boshlangich matematika darslarida arifmetik amallarni qollashda talim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
5. Ibrohimova Mohichehra Furqat qizi. Problems That Arise In the Classroom in the Educator and Their Optimal Solutions . European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 2 | Issue 2 | ISSN: 2795-8612

**REZYUME**

Bu maqolada boshlang`ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi haqida fikr yuritilgan. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining dunyoqarashini va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun turli ko`rinishdagi topshiriqlar bilan ishlash haqida fikr yuritilgan.

**РЕЗЮМЕ**

В данной статье рассматривается методика развития логического мышления в младших классах. Для развития мировоззрения и логического мышления младших школьников задумывалась работа с разнотипными заданиями.

**SUMMARY**

This article discusses the method of developing logical thinking in elementary grades. To develop the worldview and logical thinking of primary school students, it was thought about working with different types of assignments.

## **O`QUVCHILARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI**

*Olloqova O'.M.*

*Buxoro davlat universiteti*

*Boshlang`ich ta'lif metodikasi kafedrasи o`qituvchisi*

**Kalit so‘zlar:** kommunikativ kompetensiya, pragmatik kompetensiya, ona tili va o‘qish savodxonligi, diskursiv, funksional, Milliy o‘quv dasturi, o‘quv topshirig‘i.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, pragматическая компетентность, родной язык и читательская грамотность, дискурсивная, функциональная, национальная учебная программа, учебная задача.

**Key words:** communicative competence, pragmatic competence, mother tongue and reading literacy, discursive, functional, National Curriculum, educational task.

**KIRISH.** Ma’lumki, bugungi kunda boshlang`ich sinf o‘quvchilari katta axborot oqimi sharoitida ta’lim-tarbiya olmoqdalar. Shunga ko‘ra, zamonaviy boshlang`ich sinf o‘qituvchisi oldida o‘quvchilarni olayotgan ma’lumotlarni tizimlashtirish va yangi ma’lumotlarni qayta ishlashning samarali vositalaridan foydalanishga o‘rgatish vazifasi turibdi. Shuning uchun axborotni yuqori darajada o‘zlashtirish orqali ularda bilim, ko‘nikma, malaka va zarur kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradigan turli xil usul va vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bolaning tafakkuri, ijodiyligi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim tizimida boshlang`ich sinfni tugatayotgan har bir o‘quvchi shaxsiga bir qancha zamonaviy, shu jumladan, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan yangi talablarni qo‘yadi. Binobarin, o‘qitishning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, uslublari va usullarini qayta ko‘rib chiqqan holda ishlab chiqilgan yangi milliy dasturning qabul qilinishi